



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/2



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 2-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 2 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

Chet tili o'rganish mobaynida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beruvchi texnika va manbalar

Ilmiy rahbar: **Toshboyeva Barnoxon**

ADCHTI Pedagogika fanlar doktori

Kozimova Mohiraxon

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada chet tilini o'rganish jarayonida tinglab tushunish (listening comprehension) ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali texnika va manbalar keng tahlil qilinadi. Tinglab tushunish chet tilini egallashning asosiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, u nafaqat muloqot jarayonida, balki talaffuz, lug'at boyligi va grammatik bilimlarning mustahkamlanishida ham muhim o'rin tutadi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, audiovizual vositalar, autentik materiallar hamda raqamli platformalarning o'rni ilmiy dalillar va statistik ma'lumotlar asosida yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari chet tili o'qituvchilari, talaba va mustaqil o'rganuvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: chet tili, tinglab tushunish, listening, autentik materiallar, audiovizual vositalar, raqamli platformalar, kommunikativ kompetensiya.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida chet tillarini bilish shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylandi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, chet tilini o'rganishda eng murakkab, ammo eng muhim ko'nikma bu — tinglab tushunish hisoblanadi. Chunki real muloqotning qariyb 40–50 foizi tinglash jarayoniga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, an'anaviy ta'lim tizimida ko'pincha grammatika va yozma mashqlarga ko'proq e'tibor qaratilib, tinglab tushunish ikkinchi darajali ko'nikma sifatida qaralgan.

Zamonaviy lingvodidaktika esa tinglab tushunishni kommunikativ kompetensiyaning asosi sifatida talqin etadi. Til o'rganuvchi avvalo eshitish orqali til tizimini ong ostida qabul qiladi, so'ngra nutq, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, chet tili ta'limida tinglab tushunishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnika va manbalarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasining nazariy asoslari

Tinglab tushunish (Listening)— bu faqat ma'lum bir tovushlarni eshitish emas, balki ularni tahlil qilish, tushunish va har qanday kontekst bilan bog'lay olish jarayonidir. Ushbu jarayonning asosiy omillari sifatida kognitiv (idrok, xotira va diqqat) hamda ligvistik (lug'at, grammatika va fonetika) omillarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, agar tinglovchi o'zganing nutqi davomida ayrim so'zlarni to'liq tushunmasa ham umumiy mazmunni kontekst orqali anglab olishi mumkin. Til o'rganuvchilarining qariyb 60% ga yaqini turli aksentlar, tez nutq va autentik materiallar bilan ishlash davomida bir qancha qiyinchiliklarga duch

keladi. Bu esa tinglab tushunish ko'nikmasini maxsus mashqlar va texnikalar orqali rivojlantirish kerak ekanligini ko'rsatadi.

Tinglab tushunishni rivojlantiruvchi samarali texnikalar:

2.1 Bosqichma-bosqich tinglash (Pre-listening, While-listening, Post-listening)

Ushbu texnika uch bosqichdan iborat bo'lib ular: 1.Pre-listening— ushbu bosqichida mavzu, asosiy tushunchalar va muhim so'zlar bilan tanishtiriladi; 2.While-listening— ushbu bosqichda asosiy g'oya va tafsilotlarga e'tibor qaratiladi; 3.Post-listening —bosqichida esa muhokama, qayta hikoyalash va tahlil qilish amalga oshiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv tinglab tushunish samaradorligini qariyb 25–30 foizga oshiradi.

2.2. Qayta-qayta tinglash (Repeated listening)

Bir xil audio materialni bir necha marotaba turli maqsadlarda tinglash o'rganuvchining ishonchini oshiradi. Birinchi bor tinglashda umumiy mazmuniga ahamiyat beriladi, ikkinchi marta tinglashda tafsilotlar, uchinchi marta tinglashda esa til birliklari yani intonatsiya, talaffuz, connected speech va chunk tahlil qilinadi.

2.3. Soyali o'qish (Shadowing technique)

Shadowing texnikasi audio materialni eshitish jarayonida nutqni bir vaqtda takrorlashga asoslanadi. Bu usul nafaqat tinglab tushunishni, balki talaffuz, nutq tezligini hamda "native speaker" larga o'xshab muloqot qilishni ham rivojlantiradi. Shadowing bilan muntazam shug'ullangan o'rganuvchilarning tinglab tushunish darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Tinglab tushunish uchun samarali manbalar

3.1. Autentik materiallar

Autentik materiallar — bu ona tilida so'zlashuvchilar uchun yaratilgan audio va video resurslardir (podkastlar, intervyular, yangiliklar, filmlar). Ular real til muhitini aks ettiradi va o'rganuvchini haqiqiy nutqqa moslashtiradi. Masalan, BBC Learning English, VOA Learning English kabi platformalar ilmiy-pedagogik jihatdan sinovdan o'tgan.

3.2. Audiovizual vositalar

Video materiallar (TED Talks, hujjatli filmlar, qisqa videolar) tasvir va ovoz uyg'unligi orqali tushunishni osonlashtiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, audiovizual materiallardan foydalangan talabalar faqat audio tinglaganlarga nisbatan ma'lumotni 20 foizga ko'proq eslab qoladi.

3.3. Raqamli platformalar va mobil ilovalar

Zamonaviy texnologiyalar chet tilini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Duolingo, BBC Sounds, Spotify podkastlari, YouTube kanallari tinglab tushunishni mustaqil rivojlantirishda samarali manbalar hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mobil ilovalar orqali o'rgangan foydalanuvchilarning 70 foizi tinglash ko'nikmasi yaxshilanganini ta'kidlaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish chet tilini o'rganish jarayonining ajralmas va asosiy ko'nikmasi hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun

an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy texnika va manbalardan samarali foydalanish zarur. Bosqichma-bosqich tinglash, qayta tinglash, shadowing kabi texnikalar hamda autentik va raqamli manbalar o'rganuvchining tilni real muloqot darajasida egallashiga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy maqolada keltirilgan tahlil va dalillar chet tili ta'limi jarayonini yanada samarali tashkil etishga amaliy yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, A., & Lynch, T. (2003). Listening. Oxford University Press.
2. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
3. Harmer, J. (2015). How to Teach English. Longman.
4. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
5. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Pearson Education.
6. Ur, P. (2012). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press.
7. BBC Learning English. (2024). Listening skills resources.
8. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge.
9. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
10. Vandergrift, L., & Goh, C. (2012). Teaching and Learning Second Language Listening. Routledge.

